

YOSHLARGA YARATILGAN IMTIYOZLAR: CHET TILINI O‘RGANISH YO‘LIDAGI YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o‘quvchisi:

Bakirova Xurshida Bairbekovna

Annotatsiya: maqolada yoshlarni chet tilini bilish darajasini olish maqsadida imtihon topshirish harajatlarini to‘liq qoplab berishning ahamiyati va bu islohotlarning yoshlarni bilimli va dunyoqarashi keng bo‘lib shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan..

Kalit so‘zlar: xalqaro imtihon, kompensatsiya, inson omili.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi “Xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha yuqori ball (daraja) to‘plagan Yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to‘liq qoplab berish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi 209-son qarori e‘lon qilindi.

Qarorga ko‘ra, 1-maydan boshlab IELTS, TOEFL, GMAT, GRE va SAT imtihonlaridan yuqori ball to‘plagan Yoshlarga imtihon xarajatlari to‘liq qoplab beriladi. Bunda, har bir imtihon topshirish xarajatlarini kompensatsiya qilish uchun minimal ko‘rsatkich belgilanadi.

Misol uchun: IELTS — 7 ball, TOEFL — 95, GMAT — imtihon natijalarining har biri bo‘yicha 75 foiz, GRE — imtihon natijalarining har biri bo‘yicha va SAT — 1200 ball. Imtihonlar xarajatlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan to‘liq qoplab beriladi. Imtihon topshirgan shaxs xarajatlarni qoplash bo‘yicha arizani Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron tarzda topshirishi mumkin. Ariza beruvchi quyidagi hujjatlarni elektron tarzda ilova qiladi:

- imtihon topshirish xarajati to‘langanini tasdiqlovchi to‘lov kvitansiyasi (pdf formatda);

- maxsus sertifikat (pdf formatda).

Ariza beruvchidan ushbu bandeda ko‘rsatilmagan ma‘lumot va hujjatlarni talab qilish qat‘iyan taqiqlanadi. Taqdim etilgan hujjatlardagi ma‘lumotlarning xaqqoniyligiga ariza beruvchi mas‘ul hisoblanadi.

Ariza beruvchi davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etgan taqdirda, uning so‘rovnomasi davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to‘ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng 10 daqiqa mobaynida, YAIDXP orqali murojaat etganda, avtomatik tarzda yoshlar ishlari agentligiga elektron shaklda yuboriladi.

Quyidagi shartlar to‘liq bajarilganda, ariza beruvchiga mazkur Reglamentda nazarda tutilgan kompensatsiya to‘lab beriladi: imtihonlarning biri yoki bir nechtasi bo‘yicha imtihon topshirish xarajati kompensatsiya qilinishi uchun to‘planishi lozim

bo‘lgan yuqori ball (daraja)ning minimal ko‘rsatkichi yoki undan yuqori natija qayd etilganda; maxsus sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun o‘tmasdan kompensatsiya to‘lashni so‘rab ushbu Reglamentda belgilangan tartibda murojaat qilganda; maxsus sertifikatda ko‘rsatilgan imtihon natijasining haqiqiyliги va to‘g‘riligi yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanganda.

Murojaat qilish jarayonida ariza beruvchi kompensatsiyani olish uchun o‘ziga qulay hududdagi Xalq banki filialini tanlaydi. Yoshlar ishlari agentligi ariza beruvchining murojaati YAIDXP orqali tushgan paytdan boshlab 15 kalendar kun mobaynida maxsus sertifikatni verifikatsiyadan o‘tkazadi. Agar maxsus sertifikatning haqiqiyliğini verifikatsiya orqali aniqlashning imkoni bo‘lmasa, yoshlar ishlari agentligi imtihon tashkil etishga mas‘ul vakolatli tashkilotga maxsus sertifikatning haqiqiyliğini so‘rab so‘rov yuboradi. Bunda yoshlar ishlari agentligi tomonidan yuborilgan so‘rovning elektron shakli (pdf formatda) idoralararo elektron tizimga joylashtirilganda, maxsus sertifikatning haqiqiyliğini tasdiqlatish muddati 30 kalendar kunga uzaytiriladi. Muqaddam imtihonlarning bir turi bo‘yicha imtihon topshirish xarajati kompensatsiyasini olgan ariza beruvchi imtihonlarning boshqa turi bo‘yicha minimal ko‘rsatkich yoki undan yuqori natija qayd etsa, unga ushbu Reglament talablariga muvofiq kompensatsiya to‘lab beriladi. Ta’kidlash lozimki, yuqoridagi tartib-qoidalarning huquqiy jihatdan asoslantirilganligidan maqsad mamlakatimizda yoshlarning bilim olishga, chet tilini o‘rganishga, dunyoqarashini kengaytirishga, har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishtirishdan iboratdir. Shuning uchun har bir yoshlar ushbu imkoniyatlardan, umuman olganda, mamlakatimizda biz yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘liq foydalanishimiz va belgilangan maqsadlar sari doimiy harakatda davom etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.04.2021-yildagi «Xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha yuqori ball (daraja) to‘plagan Yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to‘liq qoplab berish tartibini joriy etish to‘g‘risida» gi 209-son qarori;
2. <http://www.Yoshlarportali.uz> internet web-sayti;
3. Internet saytlari